



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MOLİYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ortiqov Maksudboy

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

ORCID: 0009-0008-9446-7029

mr.magsudboy@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy nazorat tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari yoritiladi. Moliyaviy nazoratni raqamlashtirishning davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligiga ta'siri hamda ushbu jarayonning xalqaro e'tirof etilgan tamoyillar bilan uyg'unligi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar nazorat jarayonlarining tezkorligi va uzluksizligini ta'minlab, moliyaviy resurslar harakati ustidan samarali monitoringni amalga oshirish imkonini berishi asoslanadi. Shuningdek, moliyaviy nazoratni raqamlashtirish uni an'anaviy tekshiruvlardan preventiv va tahliliy boshqaruv mexanizmiga aylantirish imkoniyatiga ega ekani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy nazorat, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, davlat moliyasi, moliyaviy boshqaruv, nazorat samaradorligi, Lima deklaratsiyasi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ортиков Максудбой

Генеральная прокуратура Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы финансового контроля на основе цифровых технологий. Анализируется влияние цифровизации финансового контроля на эффективность государственного финансового управления и соответствие этого процесса международно признанным принципам. Утверждается, что цифровые технологии обеспечивают скорость и непрерывность контрольных процессов и позволяют эффективно отслеживать движение финансовых ресурсов. Также показано, что цифровизация финансового контроля имеет потенциал для его трансформации из традиционного контроля в превентивно-аналитический механизм управления.

Ключевые слова: финансовый контроль, цифровизация, цифровые технологии, государственные финансы, финансовое управление, эффективность контроля, Лимская декларация.

IMPROVEMENT OF THE FINANCIAL CONTROL SYSTEM BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Ortiqov Maksudboy

General Prosecutor's Office of Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article examines the improvement of financial control systems using digital technologies. It analyzes the impact of digitalization of financial control on the effectiveness of public financial management and its compliance with internationally recognized principles. It argues that digital technologies ensure the speed and continuity of control processes and enable the effective tracking of financial resources. It also demonstrates that digitalization of financial control has the potential to transform it from a traditional control mechanism into a preventive and analytical management mechanism.*

Keywords: *financial control, digitalization, digital technologies, public finances, financial management, control efficiency, Lima Declaration.*

Kirish.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi barcha sohalar qatori moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimlarining ham tubdan transformatsiyalanishiga olib kelmoqda. Global raqobat kuchayib borayotgan, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligiga talab ortayotgan sharoitda moliyaviy nazoratning an'anaviy usullari zamonaviy boshqaruv ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Ayniqsa, ma'lumotlarning katta hajmi, moliyaviy operatsiyalarning murakkablashuvi hamda xatarlilik darajasining oshishi moliyaviy nazorat tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Raqamli texnologiyalar, xususan, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt, blokcheyn va real vaqt rejimida monitoring vositalari moliyaviy nazorat jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va aniqligini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar nazorat funksiyasini faqatgina postfaktum tekshiruvdan strategik va preventiv boshqaruv instrumentiga aylantirish imkonini bermiqda. Natijada moliyaviy intizom mustahkamlanib, resurslardan foydalanish samaradorligi oshib bormiqda. Bu esa o'z navbatida raqamli texnologiyalarning moliyaviy nazorat tizimiga ta'sirini tahlil qilish hamda zamonaviy raqamli yechimlar asosida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda davlat moliyaviy nazorat tizimini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanmoqda. Mavjud tadqiqotlarning aksariyatida raqamli transformatsiya moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish hamda moliyaviy buzilishlarni oldindan aniqlash imkonini beruvchi muhim strategik omil sifatida talqin etiladi.

Mazkur yo'nalishdagi empirik tadqiqotlardan biri Shibileva va Parshutkina (2023) tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, unda Bolgariyaning asosiy moliyaviy nazorat organlarida raqamli axborot boshqaruvi vositalaridan foydalanish darajasi so'rovnoma va korrelyatsion tahlil asosida baholangan. Tadqiqot natijalari raqamli ma'lumotlar bazalari, biznes-analitika platformalari hamda elektron hujjat aylanishi moliyaviy axborotni yig'ish, qayta ishlash va himoyalash sifatini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mualliflar raqamli texnologiyalar imkoniyatlarining to'liq ro'yobga chiqmayotganini ta'kidlab, buni xodimlarning IT kompetensiyalari yetishmasligi, eskirgan tizimlar bilan moslashuv muammolari va axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya qiyinchiliklari bilan izohlaydi. Bu

holat raqamlashtirish samaradorligi texnologik omillar bilan bir qatorda institutsional va kadrlar salohiyatiga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Raqamli moliyaviy nazoratning nazariy va konseptual asoslari Zubareva va hammualliflar (2020) tadqiqotlarida yanada chuqurroq ishlab chiqilgan. Mualliflar "moliyaviy elektron nazorat" (financial e-control) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, davlat moliyaviy nazoratini yagona integratsiyalashgan axborot maydoni asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuvda blokcheyn texnologiyalari va elektron raqamli imzo nazorat jarayonlarida ma'lumotlar ishonchliligi, xavfsizligi va tranzaksiyalarni kuzatuvchanligini ta'minlovchi asosiy instrumentlar sifatida talqin etiladi. Mualliflar Hisob palatasi bazasida markazlashgan yuqori darajadagi nazorat organini shakllantirish orqali moliyaviy elektron nazoratni muvofiqlashtirishni taklif etib, bunday model moliyaviy buzilishlarning sezilarli qismini aniqlash imkonini berishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mazkur konsepsiya Zubareva va hammualliflarning keyingi tadqiqotlarida yanada rivojlantirilib, davlat moliyaviy nazorati to'liq raqamli va gorizontal integratsiyalashgan tizim sifatida qayta talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda nazorat jarayonlari alohida tekshiruv bosqichlari majmui sifatida emas, balki yagona raqamli arxitektura doirasida uzluksiz axborot-tahliliy jarayon sifatida qaraladi. Bu esa moliyaviy nazoratning reaktiv shakldan preventiv va tahliliy boshqaruv mexanizmiga transformatsiyalanishini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Ichki davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish masalasi Kotova va hammualliflar (2023) tadqiqotida tizimli islohot vositasi sifatida yoritilgan. Mualliflar raqamlashtirishni faqat texnologik yangilanish bilan cheklab qo'ymasdan, uni moliyaviy boshqaruv tizimini kompleks modernizatsiya qilishning asosiy drayveri sifatida talqin qiladi. Tadqiqotda normativ-huquqiy, tashkiliy va texnologik elementlarning o'zaro uyg'unligi raqamli nazorat samaradorligini ta'minlovchi muhim shart ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida ichki nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish nazoratning aniqligi va tezkorligini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Davlat moliyaviy nazoratining raqamli transformatsiyasi Zaytseva va Baetova (2023) tadqiqotlarida makroinstitutsional nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Mualliflar Rossiya tajribasi asosida raqamli texnologiyalarning davlat moliyasi va nazorat mexanizmlariga ta'sirini baholab, yagona axborot makonini shakllantirish zarurligini asoslaydi. Ular nazorat faoliyatini avtomatlashtirishda bulutli texnologiyalar va markazlashgan axborot tizimlarining ahamiyatini ko'rsatib, raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan kiberxavfsizlik xavflari, kadrlar yetishmasligi hamda tizimlararo integratsiya muammolariga alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyalarini joriy etish va davlat xodimlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ushbu muammolarni bartaraf etishning muhim sharti sifatida ko'rsatiladi.

Tahlil qilingan adabiyotlar raqamli texnologiyalar moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Biroq mavjud tadqiqotlar asosan konseptual modellar va umumiy institutsional yondashuvlarga qaratilgan bo'lib, raqamli texnologiyalarni moliyaviy nazorat tizimiga joriy etishning amaliy mexanizmlari hamda ularning real samaradorligini empirik baholash masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish masalasini yanada chuqur ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola moliyaviy nazorat tizimining mohiyati, uning raqamli transformatsiya sharoitidagi o'zgarishi hamda davlat moliyaviy nazoratini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga oid nazariy qarashlarga asoslangan. Tadqiqot jarayonida moliyaviy nazoratning an'anaviy va raqamli shakllari o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish orqali raqamli texnologiyalarning moliyaviy nazorat samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab

olindi. Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullari yordamida umumiy nazariy xulosalar shakllantirilib, raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi turmush darajasini oshirish davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib, ushbu maqsadlarga erishish davlat moliyasini boshqarish sifatiga bevosita bog'liq. Shu munosabat bilan davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyati ortib bormoqda, bu esa o'z navbatida davlat moliyaviy nazorati samaradorligini kuchaytirish hamda nazorat mexanizmlarini zamon talablariga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda (Temirov, 2023). Mazkur sharoitda moliyaviy nazoratni raqamlashtirish, avvalambor, uning samaradorligini oshirishga xizmat qilib, nazorat jarayonlarini yanada tizimli va izchil tashkil etish imkonini yaratadi, zero axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida davlat moliyaviy nazorati organlari yirik ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, veb-texnologiyalarga asoslangan markazlashtirilgan yechimlar kabi ilg'or texnik yangiliklardan tobora faolroq foydalanmoqda.

Davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirish va uni zamon talablariga moslashtirish masalasi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha asosiy konseptual yondashuvlar xalqaro standartlar va tamoyillarda o'z aksini topgan. Xususan, davlat moliyaviy nazoratining fundamental prinsiplarini belgilab beruvchi hujjatlardan biri INTOSAI tomonidan 1977-yilda qabul qilingan Lima deklaratsiyasidir. Mazkur deklaratsiya oliy nazorat organlarining mustaqilligi, vakolatlari va javobgarligi, shuningdek, nazorat faoliyatining shaffofligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan asosiy tamoyillarni mujassamlashtiradi hamda davlat moliyaviy nazoratining universal nazariy asosini shakllantiradi.

Lima deklaratsiyasida moliyaviy nazoratning bosh maqsadi davlat moliyaviy resurslaridan qonuniy, maqsadli va oqilona foydalanilishini ta'minlashdan iborat ekani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, nazorat faoliyati faqat moliyaviy buzilishlarni aniqlash bilan cheklanmasdan, moliyaviy intizomni mustahkamlash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qilishi lozimligi qayd etiladi. Deklaratsiyada, shuningdek, axborotga erkin kirish, tekshiruv natijalarining ochiqligi va jamoatchilik oldida hisobdorlik kabi prinsiplar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur prinsiplar an'anaviy moliyaviy nazorat sharoitida shakllangan bo'lsa-da, hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida ularni samarali amalga oshirish yangi yondashuv va vositalarni talab etmoqda. Aynan shu jihat Lima deklaratsiyasida belgilangan tamoyillarni moliyaviy nazoratni raqamlashtirish jarayoni bilan bog'liq holda ko'rib chiqish va ularning zamonaviy sharoitdagi amaliy ahamiyatini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayonini baholashda uni xalqaro e'tirof etilgan prinsiplar bilan bog'liq holda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, davlat moliyaviy nazoratining konseptual asoslarini belgilab beruvchi INTOSAI tomonidan qabul qilingan Lima deklaratsiyasida mustahkamlangan tamoyillar raqamli moliyaviy nazorat mexanizmlarining mazmuni va yo'nalishini aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda Lima deklaratsiyasining asosiy prinsiplarining raqamli moliyaviy nazorat sharoitidagi amaliy ifodasi keltirilgan.

Mustaqillik prinsipi raqamli moliyaviy nazorat sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki raqamli axborot tizimlari nazorat organlariga moliyaviy ma'lumotlarni bevosita va vositachilarsiz olish imkonini beradi. Bu tekshiruv jarayonida tashqi bosim va manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini kamaytiradi. Natijada nazorat organlarining funksional va tashkiliy mustaqilligi amaliy jihatdan mustahkamlanadi.

1-jadval

Lima deklaratsiyasi prinsiplari va ularning raqamli moliyaviy nazorat bilan bog'liqligi

Lima deklaratsiyasi prinsipi	Prinsipning mazmuni	Raqamli moliyaviy nazorat mexanizmlari bilan bog'liqligi
Mustaqillik	Oliy moliyaviy nazorat organlari tekshirilayotgan subyektlardan tashkiliy va funksional jihatdan mustaqil bo'lishi lozim	Integratsiyalashgan raqamli axborot tizimlari va markazlashgan ma'lumotlar bazalari nazorat organlariga mustaqil ravishda ma'lumotlarni olish va tahlil qilish imkonini beradi, tashqi bosim va subyektiv aralashuvlarni cheklaydi
Qonuniylik	Moliyaviy nazorat qat'iy normativ-huquqiy asosda amalga oshirilishi zarur	Raqamli nazorat platformalarida tekshiruv tartiblari, algoritmlar va ruxsat darajalari huquqiy normalar asosida belgilanishi nazoratning qonuniyligini ta'minlaydi
Obyektivlik	Tekshiruvlar xolislik tamoyiliga asoslanishi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmasligi kerak	Avtomatlashtirilgan tahlil, algoritmik tekshiruv va raqamli monitoring inson omilining subyektiv ta'sirini kamaytirib, obyektiv baholashni kuchaytiradi
Javobgarlik	Oliy moliyaviy nazorat organlari o'z faoliyati sifati va natijalari uchun javobgar bo'lishi lozim	Raqamli hisobot tizimlari va audit izlari (audit trail) nazorat faoliyatining natijalarini baholash va mas'uliyatni aniqlash imkonini kengaytiradi
Oshkoralik	Tekshiruv natijalari jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi, maxfiylik talablariga rioya etilishi shart	Elektron hisobotlar, ochiq ma'lumotlar portallari va onlayn e'lonlar nazorat natijalarining shaffofligini oshiradi
Tizimlilik	Nazorat moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanishning barcha bosqichlarini qamrab olishi kerak	Yagona raqamli platforma va o'zaro integratsiyalashgan axborot tizimlari moliyaviy jarayonlarni kompleks va uzluksiz monitoring qilish imkonini beradi

Qonuniylik prinsipi raqamli moliyaviy nazorat mexanizmlarining huquqiy asosda ishlashini talab etadi. Raqamli platformalarda nazorat tartib-taomillari, tekshiruv algoritmlari va ma'lumotlarga kirish darajalari normativ-huquqiy hujjatlar bilan qat'iy muvofiqlashtiriladi. Bu holat nazorat faoliyatining tartibli va huquqiy chegaralarda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Obyektivlik prinsipi raqamli texnologiyalar orqali yanada kuchaytiriladi, chunki avtomatlashtirilgan tahlil va algoritmik tekshiruvlar inson omilining subyektiv ta'sirini kamaytiradi. Ma'lumotlarga asoslangan raqamli baholash mexanizmlari tekshiruv natijalarining xolisligini oshiradi. Shu tariqa nazorat qarorlari dalillarga tayanib shakllantiriladi.

Javobgarlik prinsipi raqamli moliyaviy nazorat sharoitida audit izlari va elektron hisobotlar orqali amalda ta'minlanadi. Har bir nazorat harakati va qaror raqamli muhitda qayd etilishi natijasida mas'uliyatni aniqlash imkoniyati kengayadi. Bu nazorat organlarining o'z faoliyati sifati uchun javobgarligini kuchaytiradi.

Oshkoralik prinsipi raqamli moliyaviy nazorat orqali yangi mazmun kasb etadi. Elektron hisobotlar, ochiq ma'lumotlar portallari va onlayn axborot resurslari nazorat natijalarining jamoatchilikka ochiqligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, raqamli vositalar maxfiylik talablariga rioya etgan holda oshkoralikni ta'minlash imkonini beradi.

Tizimlilik prinsipi raqamli moliyaviy nazorat mexanizmlarida integratsiyalashgan axborot tizimlari orqali namoyon bo'ladi. Moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi

va ulardan foydalanish bosqichlari yagona raqamli muhitda uzluksiz monitoring qilinadi. Bu nazoratni fragmentar emas, balki kompleks va tizimli tarzda amalga oshirish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, moliyaviy nazoratni raqamlashtirish jarayoni davlat moliyaviy nazoratining xalqaro e'tirof etilgan asosiy prinsiplarini amaliy jihatdan mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar Lima deklaratsiyasida belgilangan mustaqillik, qonuniylik, obyektivlik, javobgarlik, oshkoralik va tizimlilik prinsiplarini nafaqat saqlab qoladi, balki ularning real bajarilishini ta'minlash uchun yangi institutsional va texnologik imkoniyatlar yaratadi. Natijada moliyaviy nazorat alohida tekshiruvlarga asoslangan reaktiv mexanizmdan uzluksiz, preventiv va tahliliy boshqaruv instrumentiga aylanishi mumkin. Bu esa davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Moliyaviy nazoratni raqamlashtirish davlat moliyaviy boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish nazorat jarayonlarini yanada tezkor va izchil tashkil etish imkonini berib, moliyaviy resurslar harakati ustidan doimiy va samarali monitoringni ta'minlaydi. Shu jihatdan, raqamlashtirish moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Moliyaviy nazoratni raqamli muhitga o'tkazish jarayoni xalqaro miqyosda e'tirof etilgan asosiy tamoyillar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiyalar ushbu prinsiplarga faqat nazariy darajada emas, balki ularning amaliy ijrosini ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Axborot tizimlari, avtomatlashtirilgan tahlil va elektron hisobotlar nazorat faoliyatining barqarorligini oshirib, inson omili bilan bog'liq cheklovlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Moliyaviy nazoratning raqamli transformatsiyasi uni an'anaviy tekshiruvga asoslangan yondashuvdan oldini olish va tahlilga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmiga aylantirish imkonini yaratadi. Bunday yondashuv moliyaviy xatarlarni erta aniqlash, nazorat xarajatlarini optimallashtirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonining barqarorligi huquqiy bazani takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir.

Shuni alohida qayd etish joizki, moliyaviy nazoratni raqamlashtirish texnik yangilanish bilangina cheklanmay, davlat moliyaviy nazoratining asosiy prinsiplarini zamonaviy sharoitda izchil amalga oshirishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv moliyaviy intizomni mustahkamlash, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish hamda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Kotova O., Novikova N., Vorotilova O., Lylov A., Kurdyumov A. (2023). *Digitalization of Internal State Financial Control as a Tool for Effective Reform of the Financial Management System. Теория и практика общественного развития.*

Shibileva O., Parshutkina V. (2023). *Improving Control in the Digital Environment in the Field of Public Administration on the Example of the Republic of Mordovia. Management Sciences.*

Temirov M. (2023) *Davlat moliyaviy nazorati samaradorligi tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Ilmiy elektron jurnal. –T.: (4). 57-65 b.*

Zaytseva O., Baetova D. (2023). *Digital technologies for state financial control. Фундаментальные исследования (Fundamental research).*

Zubareva E., Basantsov I., Byelov S. (2020). *Financial E-Control: Modernization of the State Financial Control System in the Conditions of Digital Economy*. *Journal of Automation and Information Sciences*, 52, 62-75.

Васильева М. (2011) Эффективность государственного и муниципального финансового контроля: организационный, институциональный и системный ракурсы / М. Васильева // *Финансы и кредит*. – № 33 (465) – С. 35-44.

Захаров К.Е. (2010) Государственный финансовый контроль: подходы к оценке эффективности // *Финансовый журнал*. – №2. – С.61-72.

Ковалева Э.Р., Попова Е.А., Кабашева И.А. (2017) Оценка эффективности государственного финансового контроля в Республике Татарстан // *Экономика и предпринимательство*. - №8-2. - С.321-325

Салихов З.А. (2005) Некоторые подходы к оценке эффективности и результативности работы органов государственного финансового контроля / З.А. Салихов // *Аудит и финансовый анализ*. - №2. – С.15-23